INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT
10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI

NAVOIY BADIIY TAFAKKURIDA AYOL TIMSOLI

Jabborova Matluba Rustamovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
O'zbek adabiyoti va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0001-9234-6137
e-mail: mdjabborova86@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20427344

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Alisher Navoiy badiiy tafakkurida ayol obrazining estetik, axloqiy va falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida "Xamsa" dostonlaridagi Shirin va Layli obrazlari tanlangan. Maqolada ayol obrazi Navoiy ijodida faqat ishqiy syujet unsuri yoki go'zallik timsoli sifatida emas, balki estetik ideal, axloqiy qadriyat va ruhiy kamolot mezoni sifatida talqin etilishi asoslanadi. Chunonchi, Shirin obrazida aql, vafo va siyosiy mas'uliyat uyg'unligi; Layli obrazida sabr, poklik, sukut va botiniy iroda; Mehinbonu obrazida esa donolik, tadbirlilik va adolatparvarlik kabi xususiyatlar namoyon bo'lishi ko'rsatib beriladi. Tahlil natijasida Navoiy ayol obrazlari orqali insonning ma'naviy yuksalishi, ishqning poklovchi mohiyati va axloqiy komillik g'oyalarini ifodalagani aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, "Xamsa", ayol obrazi, badiiy tafakkur, estetik ideal, axloqiy qadriyat, ruhiy kamolot, Shirin, Layli, Mehinbonu.*

Аннотация. *В данной статье анализируется эстетическая, моральная и философская сущность образа женщины в художественной мысли Алишера Навои. В качестве объекта исследования выбраны образы Ширин и Лейлы из эпической поэмы «Хамса». В статье утверждается, что образ женщины в творчестве Навои интерпретируется не только как элемент романтического сюжета или символ красоты, но и как эстетический идеал, моральная ценность и критерий духовного совершенства. Например, образ Ширин демонстрирует гармонию интеллекта, верности и политической ответственности; образ Лейлы – терпение, чистоту, молчание и внутреннюю волю; а образ Мехинбону – такие черты, как мудрость, находчивость и справедливость. В результате анализа установлено, что Навои выражал через образы женщин идеи духовного возвышения человека, очищающей сущности любви и нравственного совершенства.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, "Хамса", женский образ, художественное мышление, эстетический идеал, нравственная ценность, духовное совершенство, Ширин, Лейли, Мехинбону.*

Annotation. *This article analyzes the aesthetic, moral, and philosophical essence of the image of women in the artistic thought of Alisher Navoi. The images of Shirin and Layla in the epic poem "Khamsa" are chosen as the object of research. The article argues that the image of a woman in Navoi's work is interpreted not only as an element of a romantic plot or a symbol of beauty, but also as an aesthetic ideal, moral value and criterion of spiritual perfection. For example, the image of Shirin shows the harmony of intelligence, loyalty and political responsibility; the image of Layla shows patience, purity, silence and inner will; and the image of Mehinbonu shows such features as wisdom, resourcefulness and justice. As a result of the analysis, it is determined that Navoi expressed the ideas of spiritual elevation of a person, the purifying essence of love and moral perfection through the images of women.*

Key words: *Alisher Navoi, "Khamsa", female image, artistic thinking, aesthetic ideal, moral value, spiritual perfection, Shirin, Layli, Mehinbonu.*

Kirish. Alisher Navoiy ijodi o‘zbek mumtoz adabiyotining yuksak cho‘qqisi bo‘lib, unda inson, jamiyat, ishq, adolat, ma’rifat va komillik masalalari keng badiiy-falsafiy miqyosda talqin etilgan. Shoirning “Xamsa” dostonlari nafaqat turkiy adabiyot tarixida, balki umumsharq epik taraqqiyotida ham alohida o‘rin tutadi. “Xamsa” dostonlarida inson ruhiyati, axloqiy kamolot, muhabbat va ma’naviy yetuklik muammolari turli obrazlar tizimi orqali yoritiladi. Ana shu obrazlar tizimida ayollar obrazi alohida ahamiyatga ega. Navoiy badiiy tafakkurida ayol obrazi faqatgina ishqiy munosabatlar markazidagi ma’shuqa yoki go‘zallik timsoli sifatida emas, balki murakkab falsafiy mazmun kasb etgan obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Shirin, Layli va Mehinbonu kabi obrazlar orqali shoir insoniy kamolot, vafo, sabr, poklik, aql, adolat, san’at va ruhiy komillik masalalarini badiiy talqin qiladi. Shu jihatdan ayol obrazi Navoiy dostonlarida estetik ideal va ruhiy komillik mezoni poetik birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar sharhi. Navoiy “Xamsa”sidagi ayollar obrazi ko‘pincha an’anaviy tarzda ishqiy syujet doirasida yoki timsol sifatida o‘rganilgan. Biroq ularni shoir badiiy tafakkurining markazida, ya’ni estetik ideal, axloqiy qadriyat va ruhiy kamolot nuqtayi nazaridan kompleks tahlil qilish masalasi hali ham chuqur ilmiy yondashuvni talab etadi. Alisher Navoiy ijodi, xususan, “Xamsa” dostonlari o‘zbek adabiyotshunosligida keng o‘rganilgan. Navoiy poetikasi, obrazlar tizimi, tasavvufiy-falsafiy qarashlari, badiiy mahorati va xamsachilik an’anasidagi o‘rni yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Oybek, Vohid Zohidov, Izzat Sulton, Aziz Qayumov, Suyima G‘aniyeva, Botirxon Valixo‘jayev, Najmiddin Komilov, Natan Mallayev, Abduqodir Hayitmetov, Ibrohim Haqqul kabi olimlarning tadqiqotlarida Navoiy ijodining turli jihatlari chuqur yoritilgan. Mavjud tadqiqotlarda “Xamsa”dagi Shirin, Layli va Dilorom obrazlari asosan ishqiy syujet, obrazlar tizimi, badiiy mahorat yoki tasavvufiy talqin doirasida o‘rganilgan. Jumladan, Navoiy dostonlaridagi ishq konsepsiyasi, komil inson g‘oyasi, epik obraz yaratish mahorati, shoirning fors-tojik adabiy an’analariga munosabati va xamsachilikdagi novatorligi tadqiqotchilar e’tiborida bo‘lgan. Biroq ayollar obrazini estetik ideal, axloqiy qadriyat va ruhiy kamolot mezonlarini birlashtiruvchi konseptual tizim sifatida o‘rganish zarurati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tarixiy-adabiy va psixopoetik tahlil metodidan foydalanildi. Tarixiy-adabiy yondashuv ayollar obrazini Sharq mumtoz adabiyoti va xamsachilik an’anasi doirasida o‘rganishga xizmat qiladi. Psixopoetik yondashuv esa Layli, Shirin va Mehinbonu obrazlaridagi ichki kechinma, sukut, iztirob, ruhiy qarshilik jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Natijalar. Alisher Navoiy “Xamsa”sida obrazlar tizimi tasodifiy emas, balki muayyan g‘oyaviy-estetik maqsadga bo‘ysundirilgan yaxlit poetik tizimdir. Bu tizimda ayollar obrazi ham muhim markaziy vazifani bajaradi. Ular asar voqealarini harakatga

keltiruvchi syujet unsuri bo‘lish bilan birga, qahramonlarning ma’naviy qiyofasini ochuvchi, axloqiy mezonlarni belgilovchi va komillikka yetishda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Mutafakkir ijodida ayol obrazi ko‘pincha “jamol”, “tajalli” tushunchasi bilan bog‘lanadi. Ammo bu jamol faqat tashqi husn emas. Shoir talqinida haqiqiy go‘zallik ma’naviy poklik, vafo, sabr, aql va kamol bilan uyg‘unlashgandagina yuksak estetik ma’no kasb etadi. Shu sababli Shirin, Layli va Dilorom obrazlari tashqi go‘zalligi bilan emas, balki ichki ma’naviy qudrati, axloqiy sifatlari va qahramonlar ruhiyatiga ta’sir kuchi bilan ajralib turadi.

“Farhod va Shirin” dostonidagi Shirin obrazi Alisher Navoiyning ayol qahramonlari orasida eng mukammal estetik va axloqiy timsollardan biridir. Shirin go‘zallik, aql, vafo, iroda va siyosiy mas’uliyatni o‘zida mujassam etgan obraz sifatida tasvirlanadi. U an’anaviy ma’shuqa obrazidan farqli ravishda voqealar rivojida faol mavqega ega. Navoiy Shirin siymosida jamol va kamol, husn va aql, vafo va iroda uyg‘unligini aks ettiradi. Uning tasviri faqat tashqi go‘zallik bilan chegaralanmaydi, balki ma’naviy barkamollik bilan boyitiladi:

Harimi iffat ichra shohi ul ermish,
Sipehri ismat uzra moh ul ermish [1.259].

Bu baytda Shirin “harimi iffat” ichidagi yuksak maqom egasi sifatida tasvirlanadi. “Harimi iffat” birikmasi uning poklik, hayo va axloqiy yuksaklik timsoli ekanini bildiradi. “*Sipehri ismat uzra moh”* tasviri Shirin obrazining oddiy ma’shuqa darajasidan yuqori qo‘yilganini ko‘rsatadi. Demak, Navoiy talqinida Shirin nafaqat go‘zallik egasi, balki ma’naviy va axloqiy poklik timsolidir. Shirin obrazining yana bir muhim jihati – uning aql va tadbir sohibasi sifatida namoyon bo‘lishidir. Navoiy uni voqealar rivojida passiv obraz sifatida emas, balki mustaqil qaror qabul qiluvchi, o‘z axloqiy mezonlariga ega shaxs sifatida tasvirlaydi. Uning ta’rifi bemisl ekanligini quyidagi misralardan ham bilish mumkin:

Ne hurekim yurub qilg‘och takallum,
Uyotdin Tubiy-u Kavsar bo‘lib gum.

Quyosh bo‘lmish falakdin yerga nozil,
Va lekin tutmish Arman ichra manzil.

Ul oydin yorumish ul xittai pok,
Quyoshdin o‘ylakim bu markazi xok.

Kishiga o‘xshamas go‘yo paridur,
Pari yo‘q, oftobi xovaridur.[1.320]

Baytda Shirin quyosh yanglig‘ Armaniyani yoritishi, paridan ham yuksakdagi “Sharq quyoshi” deb ta’riflanadi. Keltirilgan sifatlar uning nafaqat go‘zalligi, balki ma’naviy yetukligini ko‘rsatadi. Bu jihat Shirin obrazini an’anaviy ishqiy dostonlardagi ma’shuqa obrazidan farqlaydi. U Farhod muhabbatining obyekti bo‘lish bilangina cheklanmay, balki Farhod kamolotiga turtki beruvchi ruhiy-ma’naviy kuch ekanligini dalillaydi. Shuningdek, Shirin va Mehinbonu obrazlari orqali Navoiy ayolning ijtimoiy-siyosiy mavqeyini ham yoritadi. Mehinbonu obrazi asarda donolik, insonparvarlik va adolatparvarlik timsoli sifatida tasvirlanadi. U Shirin tarbiyasida, uning siyosiy va axloqiy qarashlari shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Uni odamlar *“Ki, bu kishvardakim rashki jinondur, Bukun ismatpanohe hukmrondur”* deb ta’riflaydi. Mehinbonuning o‘z xalqi tomonidan “hayo pardasidagi bir ayol” deb ulug‘lanishi, uning kelib chiqishini Faridun va Jamshidga bog‘lashi xalqi suygan hukmdor bo‘lganini bildiradi. Uning naqadar oqila va dono bo‘lganini tarbiyasidagi Shirindan bilishimiz mumkin. Navoiy uchun hukmdorlik faqat kuch yoki nasab bilan emas, balki xalq dardini anglash, tadbir va adolat bilan belgilanadi. Mehinbonu obrazida ana shu mezonlar mujassamlashgan.

“Layli va Majnun” dostonidagi Layli obrazi Shirin obrazidan farqli ravishda ko‘proq ichki kechinma, sabr, sukut va botiniy poklik orqali ochiladi. Layli tashqi harakatdan ko‘ra ruhiy sokinlik timsoli sifatida gavdalanadi. Aslida uning go‘zalligi ham, shuhrati ham Shirindan kam emas:

Bir nodira ishqi mubtalosi,
Ne nodirakim, jahon balosi.

Andin Ajam-u Arab alamda,
Yo‘q misli Arab bila Ajamda.

Ishq ichra nechukki ul yagona,
Bu – husnda ofati zamona [2.57].

Shoir Laylining go‘zalligi “*husnda ofati zamona*” bo‘lsa-da, eng asosiy qimmatini tashqi husnda emas, balki botiniy poklikda ko‘radi. Bu esa Navoiy badiiy tafakkurida ayol go‘zalligi ma’naviy mezonlar bilan baholanishini ko‘rsatadi. Shuningdek, Layli obrazida sukut alohida poetik ahamiyatga ega. U ijtimoiy muhit, ota-ona irodasi va qabila urf-odatlari bosimi ostida yashaydi. Biroq uning sukuti irodasizlik emas, balki ichki bardosh va ruhiy qarshilik shaklidir:

Layliki edi arab balosi,
Ham bor edi Qays mubtalosi.

Ko‘nglida qilib nuhufta dardin,

Forig‘ bo‘lub erdi xob-u xo‘rdin.

Tun-kun ichida aning xayoli,
Jonig‘a murod aning visoli [2.101].

Ushbu baytda Laylining ichki ruhiy holati kuchli psixologik tasvir orqali berilgan. “Ko‘nglida ishq o‘ti pinhon” iborasi uning muhabbati tashqi bayondan ko‘ra ichki olamda yashashini bildiradi. “Tun-u kun iztirobi” esa sukut va g‘am uyg‘unligini ifodalaydi. Demak, Laylining sukuti passivlik belgisi emas, balki ichki tug‘yon, ishqiy va ruhiy bardoshning poetik shaklidir. Shuningdek, Layli obrazi orqali shoir ishqning poklovchi va yuksaltiruvchi mohiyatini ko‘rsatadi. Uning iztiroblari dunyoviy fojiadan tashqari, ruhiy kamolot bosqichi sifatida talqin qilinadi. Ishq, sabr va nomus tushunchalari uyg‘un holda axloqiy tizimni yuzaga keltiradi. Chunonchi, Layli o‘z muhabbatida sodiq, ammo hayo va nomus chegarasidan chiqmaydi. Shu jihatdan u Navoiy talqinida pok ishq, sabr va axloqiy yuksaklik timsolidir.

Alisher Navoiy ayollar obrazini tasvirlashda tabiat, nur, oy, quyosh, gul, dur, la’l kabi an’anaviy poetik timsollardan keng foydalangan. Biroq bu timsollar shunchaki bezak vazifasini bajarmaydi, balki obrazlarning ma’naviy mohiyatini ochishga ham xizmat qiladi. Masalan, ayol go‘zalligi oy yoki quyoshga qiyoslangan-da, bu faqat tashqi husn belgisi emas, balki ma’naviy yuksaklik ramzi sifatida ham anglashiladi. Ayniqsa Shirin va Layli tasvirlarda “jamol” va “kamol” tushunchalari yonma-yon keladi. Jamol bu uning husni bo‘lsa, kamol – komillik ramzidir. Navoiy ayollar obrazini yaratishda jamolni kamoldan ajratmaydi. Haqiqiy go‘zallik shoir talqinida aql, vafo, hayo, sabr va ruhiy poklik bilan uyg‘un bo‘lgandagina mukammal estetik ma’noga aylanadi. Shoir nazdidagi ayollar obrazining yana bir muhim jihati – ularning erkak qahramonlar kamolotidagi o‘rnidir. Farhod Shirin orqali ishqning yuqori darajasiga ko‘tariladi. Majnun Layli orqali ilohiy ishq sari yuksaladi.

Xulosa. Navoiy “Xamsa”sida ayollar obrazi syujetning yordamchi unsuri emas, balki qahramonlar ruhiy evolyutsiyasini yuzaga chiqaruvchi markaziy poetik kuchdir. Kuzatuvlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik: birinchidan, Navoiy “Xamsa”sidagi ayollar obrazi faqat ishqiy syujetning yordamchi unsuri emas, balki asarlarning g‘oyaviy-kompozitsion markazini tashkil etuvchi muhim poetik birlik sifatida yaratilgan. Ikkinchidan, Shirin obrazida estetik ideal, aql, vafo, siyosiy mas’uliyat va ma’naviy-axloqiy komillik sifatlari uyg‘unlashgan. Uchinchidan, Layli obrazida sukut, sabr, hayo, poklik va botiniy iroda ruhiy kamolotning asosiy belgilaridan biri sifatida talqin qilingan. To‘rtinchidan, Mehinbonu obrazida ayol donoligi, siyosiy tadbir, adolatparvarlik va ma’rifatli boshqaruv g‘oyalari ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Xamsa. Farhod va Shirin. – Toshkent: Tamaddun, 2021.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. Layli va Majnun. – Toshkent: Tamaddun, 2021. – 304 b.
3. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б.
4. Қаюмов А. Фарҳод ва Ширин сирлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 188 б.
5. Ҳаққулов И. Навоийга қайтиш. – Тошкент: Фан, 2011. – 200 б.